

**Vazirlik tizimida “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida
amalga oshirilayotgan ishlar haqida
m a ’ l u m o t**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatlarini soddalashtirish hamda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ayniqsa, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish, hujjat aylanmasini qisqartirish, inson omilini kamaytirish va davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ortiqcha vaqt hamda mablag‘ sarflashining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi ham davlat boshqaruvida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan muhim dasturlardan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Suv xo‘jaligi vazirligida ham byurokratik jarayonlarni qisqartirish, ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Suv xo‘jaligi sohasida samaradorlik va natijadorlikka erishishning muhim omillaridan biri raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisoblanadi. Zero, raqamlashtirish orqali ma‘lumotlarning aniqligi ta‘minlanadi, qaror qabul qilish jarayonlari tezlashadi, inson omili ta‘siri kamayadi hamda korrupsiya va byurokratiya bilan bog‘liq xavflar qisqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 13-oktabrdagi “Suv sohasini raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish va barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–183-sonli Farmoniga muvofiq sohadagi 10 ta axborot tizimi takomillashtirilib, ma‘lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi “Raqamli suv xo‘jaligi” yagona platformasi ishga tushirildi.

Mazkur platforma tarkibidagi “Suv hisobi” axborot tizimi sohadagi eng muhim raqamli yechimlardan biriga aylandi. Tizimning joriy etilishi natijasida suv hisobini yuritish jarayonlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Ilgari ko‘plab hujjatlarni qog‘oz shaklida rasmiylashtirish talab etilgan bo‘lsa, bugungi kunda mazkur jarayonlar avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilmoqda.

Natijada suv yetkazib beruvchilar va suvdan foydalanuvchilar o‘rtasida har yili 65 mingdan ortiq suv yetkazib berish shartnomalari hamda har oyda 70 mingdan ziyod yetkazib berilgan suv hajmlarini tasdiqlovchi dalolatnomalar elektron shaklda rasmiylashtirilib, QR-kod orqali ikki tomonlama imzolanmoqda.

Bu esa hujjatlarni rasmiylashtirish muddatlarini sezilarli qisqartirish, ortiqcha qog‘ozbozlikni bartaraf etish va suvdan foydalanuvchilarning idorama-idora yurish bilan bog‘liq ovoragarchiligini kamaytirish imkonini berdi.

Shuningdek, fuqarolar va suv iste‘molchilari uchun qo‘shimcha qulayliklar ratish maqsadida “Suv hisobi” mobil ilovasi hamda my.gov.uz portali orqali ajratilgan suv

limitlarini onlayn kuzatish, shartnoma va dalolatnomalarni elektron ko‘rib chiqish, imzolash yoki rad etish imkoniyatlari yo‘lga qo‘yildi.

Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan raqamli transformatsiya jarayonlari izchil davom ettirilmoqda. Xususan, “Nasos stansiyalari”, “Suv xo‘jaligi obyektlari” hamda “Melioratsiya (MIS)” axborot tizimlarini to‘liq ishga tushirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish va ma‘lumotlar integratsiyasini ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martdagi “Xulosa berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 169-sonli qaroriga muvofiq “Suv obyektlaridagi suv xo‘jaligi inshootlarini (qurilmalarini) ko‘chirish, rekonstruksiya qilish va yangidan qurishga doir xulosa berish” davlat xizmati Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ro‘yxatiga kiritildi.

Ushbu davlat xizmatining raqamli formatda tashkil etilishi murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish, ortiqcha hujjatlar talab etilishini qisqartirish, xizmat ko‘rsatish muddatlarini tezlashtirish hamda shaffoflikni ta‘minlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, joriy yilning 6-iyun kuni Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatida byurokratik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ortiqcha hujjat aylanmasi va vaqt talab qiluvchi tartib-taomillarni qisqartirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Mazkur rejada ichki boshqaruv jarayonlarini yanada raqamlashtirish, ijro intizomini kuchaytirish, hujjatlar aylanmasini maqbullashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan aniq vazifalar belgilangan bo‘lib, ularning ijrosi bosqichma-bosqich ta‘minlanmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar suv xo‘jaligi sohasida zamonaviy, shaffof va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, fuqarolar va suv iste‘molchilari uchun qulay xizmatlar ko‘rsatish hamda davlat boshqaruvida byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

**Strategik rejalashtirish
va metodologiya bo‘limi**